


## VIII.XIZMATLAR

2023- yil yanvar-mart oylarida bozor xizmatlari ishlab chiqarishning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha hajmi 2 715,8 mlrd. so'mni tashkil qildi va 2022- yil yanvar-mart oylariga nisbatan o'sish 108,5 foizni tashkil etdi.

### **Xizmatlar sohasida jami faoliyat ko'rsatayotganlar, birlikda** *(1- aprel holatiga ko'ra)*



2023- yil 1-aprel holatiga ko'ra xizmat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar umumiy sonining (16 842 birlikni ) 13 724 birligi kichik tadbirkorlik subyektlari hisoblanadi. Ularning xizmatlar sohasiga oid faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy sonidagi ulushi 81,5 % ni tashkil etdi

### **XIZMATLAR SOHASINI STATISTIK HISOBI**

**Xizmatlar sohasi bu** — korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xil xizmatlar, ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan umumlashtirilgan toifadir.

Bu mamlakatning savdo, professional va maishiy xizmatlar ko'rsatishga ixtisoslashgan iqtisodiy tarmog'idir.


**Xizmatlar sohasi**, moddiy ishlab chiqarish bilan taqqoslaganda, bir qator o'ziga xos xususiyatlarga ega. Birinchidan, tovarlardan farqli o'laroq, xizmatlar asosan bir vaqtning o'zida ishlab chiqariladi va iste'mol qilinadi va ularni saqlash man etiladi. Ikkinchidan, xizmat ko'rsatish ko'pincha mahsulotlar ishlab chiqarishga ketgan vaqtdan farqlanadi, garchi sanoatda texnik xizmat ko'rsatish roli ortib bormoqda, bu uskunalarni ta'mirlash, sotishdan keyingi xizmatlar va tovarlarni sotish bilan bog'liq boshqa xizmatlarni o'z ichiga olishi mumkin. Aytish joizki, ko'p hollarda xizmatda mahsulot elementi mavjud, xuddi mahsulot sotishda xizmat elementi mavjud bo'lgani kabi.

**Xizmatlar** – iste'molchilar (yuridik va jismoniy shaxslar) holatini o'zgartiradigan yoki tovarlar, xizmatlar va moliyaviy aktivlar bilan ayirboshlashiga ko'maklashadigan ishlab chiqarish faoliyatining natijasi hisoblanadi.

**2023- yil yanvar-mart oylarida shahar va tumanlar kesimida  
ko‘rsatilgan xizmatlar hajmi**

<i>Shahar va tumanlar nimui</i>	<i>mlrd. so‘m</i>	<i>O‘shish sur‘ati, % da</i>	<i>Jamiga nisbatan ulushi, % da</i>
<b>Xorazm viloyati</b>	<b>2 715,8</b>	<b>108,5</b>	<b>100,0</b>
Urganch shahri	972,0	110,9	35,8
Xiva shahri	123,7	113,8	4,6
<i>tumanlar:</i>			
Bog‘ot	149,8	105,0	5,5
Gurlan	146,7	112,8	5,4
Qo‘shko‘pir	141,0	108,9	5,2
Urganch	203,6	103,4	7,5
Hazorasp	197,7	105,0	7,3
Tuproqqal’a	67,8	118,0	2,5
Xonqa	191,7	110,7	7,1
Xiva	143,8	101,9	5,3
Shovot	146,4	106,4	5,4
Yangiariq	127,3	105,0	4,7
Yangibozor	104,3	105,0	3,7

## Aholi jon boshiga xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari



### Shahar va tumanlar kesimida xizmatlar hajmi va o'sish sur'ati (2023- yil yanvar-mart)

	Hajm, ming. so'mda	O'sish sur'ati, % da
Xorazm viloyati	1 384,5	106,6
Urganch sh	6467,0	108,5
Xiva sh	1 273,5	111,8
Bog'ot	866,3	103,1
Gurlan	947,8	111,0
Qo'shko'pir	787,0	107,1
Urganch	970,6	101,4
Hazorasp	976,3	103,2
Tuproqqal'a	1 165,4	115,2
Xonqa	982,1	108,8
Xiva	945,1	100,4
Shovot	825,4	104,7
Yangiariq	1 051,0	103,2
Yangibozor	1 146,2	103,4

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlarni rivojlantirish o'rtacha aholi jon boshini rivojlanish ko'rsatkichiga muhim ta'sir ko'rsatmoqda. Masalan, aholi soni nisbatan kam bo'lgan Bog'ot va Urganch tumanlarida aholi jon boshiga ko'rsatkichlar aholi zich joylashgan tumanlar: Urganch, Urganch va Urganch tumanlariga qaraganda yaxshiroq ko'rinadi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, sanoati rivojlangan hududlar (qazib olish sanoati bundan mustasno) Urganch va Urganch tumanlari hamda, Xiva shahrida xizmatlar sohasining aholi jon

boshiga oʻrtacha koʻrsatkichlari Qoʻshkoʻpir, Bogʻot va Hazorasp tumanlariga nisbatan yuqori ekanligini koʻrsatmoqda.

## IQTISODIY FAOLIYAT TURLARI BOʻYICHA ISHLAB CHIQARILGAN XIZMATLAR

Bugungi kunda xizmatlar sohasi zamonaviy milliy iqtisodiyotning eng muhim tarmoqlaridan biridir. Ushbu tarmoq anʼanaviy faoliyat bilan cheklanib qolmaydi, u jamiyat hayotida oʻz ishtirokini doimiy ravishda kengaytirib boradi, ijtimoiy ishlab chiqarishga integratsiyalashgan, shuningdek, iqtisodiyotning deyarli barcha sohalari bilan oʻziga xos aloqalar bilan bogʻlangan.

### Iqtisodiy faoliyat turlari boʻyicha ishlab chiqarilgan bozor xizmatlari

<i>Xizmat turlarining nomi</i>	<i>Xizmatlar hajmi, mlrd. soʻmda</i>		<i>Ulushi, % da</i>	<i>Oʻsish surʼati, % da</i>
	<i>2022- y yanvar-mart</i>	<i>2023- y yanvar-mart</i>		
<b>Xizmatlar – jami</b>	<b>2 242,2</b>	<b>2 715,8</b>	<b>100,0</b>	<b>108,5</b>
<i>shu jumladan asosiy turlari boʻyicha:</i>				
aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	118,6	154,7	5,7	127,3
moliyaviy xizmatlar	475,6	637,7	23,5	120,8
transport xizmatlari	503,2	582,3	21,4	104,3
<i>shu jumladan:</i> avtotransport xizmatlari	485,2	544,7	20,1	99,4
yashash va ovqatlanish xizmatlari	55,0	70,8	2,6	101,7
savdo xizmatlari	574,6	653,5	24,1	100,8
koʻchmas mulk bilan bogʻliq xizmatlar	58,0	65,2	2,4	103,7
taʼlim sohasidagi xizmatlar	93,9	121,1	4,4	113,8
sogʻliqni saqlash sohasidagi xizmatlar	47,5	59,5	2,2	108,0
ijara xizmatlari	41,8	43,8	1,6	96,7
kompyuterlar va maishiy tovarlarni taʼmirlash boʻyicha xizmatlar	94,3	112,9	4,2	105,1
shaxsiy xizmatlar	81,4	102,7	3,8	103,8
meʼmorchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	35,6	42,9	1,6	111,1
boshqa xizmatlar	62,7	69,5	2,5	104,4

2023- yil yanvar – mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari boʻyicha koʻrsatilgan bozor xizmatlari tarkibida savdo xizmatlari 24,1 %, transport xizmatlari – 21,4 %, moliyaviy xizmatlar –


23,5 %, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari – 5,7 %, ta’lim sohasidagi xizmatlar – 4,4 % ni egallaydi.

**Taqqoslash uchun:** 2022- yil yanvar-mart oylarida xizmatlarning umumiy hajmida savdo xizmatlari 25,6 %, transport xizmatlari – 22,4 %, moliyaviy xizmatlar – 21,2 %, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari 5,3 %, ta’lim xizmatlari – 4,2 % ni tashkil etdi.

### Savdo xizmatlari

**Savdo xizmatlari** – hajmi amaldagi narxlardagi yalpi daromad qiymati, ya’ni sotilgan tovarlarning sotib olish va sotish narxlari orasidagi farqining umumiy qiymati sifatida hisobga olinadi. Agar tovarlar boshqa shaxs manfaatlari uchun oldi-sotdi shartnomalar, komissiyalar yoki agentlik shartnomalari asosida sotilgan taqdirda xizmatlar qiymati mukofot miqdori sifatida aks ettiriladi.

2023-yil yanvar-mart oylarida savdo xizmatlari hajmi 653,5 mlrd. so‘mga yetdi.



## Avtomobil transporti xizmatlari

**Avtomobil transporti xizmatlariga** temir yo'lda tashishdan tashqari, quruqlikdagi yo'lovchi transportining boshqa xizmatlari, avtomobil transportida yuk tashish bo'yicha xizmatlar va ko'chish bo'yicha xizmatlar kiradi.

2023- yilning yanvar-mart oylarida avtomobil transportida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 582,3 mlrd. so'mga yetdi.

2022- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan ushbu xizmatlarning o'sish sur'ati 104,3 % ga yetdi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi 21,4 % ni tashkil etdi.



### Shahar va tumanlar kesimida avtomobil transporti xizmatlari (2023- yil yanvar-mart)


<i>Shahar va tumanlar</i>	<i>Xizmatlar hajmi, mlrd. so'mda</i>	<i>Ulushi, % da</i>	<i>O'sish sur'ati, % da</i>
<b>Xorazm viloyati</b>	<b>582,3</b>	<b>100,0</b>	<b>104,3</b>
Urganch sh	143,5	24,6	121,3
Xiva sh	20,1	3,5	123,2
Bog'ot	43,1	7,4	94,4
Gurlan	43,5	7,5	94,9
Qo'shko'pir	35,0	6,0	89,3
Urganch	41,8	7,2	95,4
Hazorasp	43,3	7,4	101,8
Tuproqqal'a	17,3	3,0	108,1
Xonqa	51,9	8,9	104,3
Xiva	38,0	6,5	95,2
Shovot	39,9	6,8	108,4
Yangiariq	33,6	5,8	103,1
Yangibozor	31,3	5,4	99,2

## Moliyaviy xizmatlar

**Moliyaviy xizmatlar hajmi** – moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlari uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

Moliyaviy xizmatlarning hajmi 637,7 mlrd. so'mga yetdi. Jami ko'rsatilgan xizmatlar hajmida moliyaviy xizmatlarning ulushi 23,5 % ni tashkil etdi. Jami moliyaviy xizmatlarning o'sish sur'ati 120,8 % ni tashkil etdi.


**Xizmatlar hajmi, mlrd. so'mda**



**O'sish sur'ati**



**Moliyaviy xizmatlarning tarkibi (2023- yil yanvar-mart)**



Moliyaviy xizmatlar tarkibida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari (pul mablag'larini olish va qayta taqsimlash bo'yicha xizmatlar) ustunlik qiladi. 2023- yil yanvar-mart oylarida ularning ulushi 90,3 % ni tashkil etdi.

**Shahar va tumanlar kesimida moliyaviy xizmatlar tarkibi (2023- yil yanvar-mart)**

Shahar va tumanlar	Xizmatlar hajmi, mlrd. so'mda	Ulushi, % da	O'sish sur'ati, % da
<b>Xorazm viloyati</b>	<b>637,7</b>	<b>100,0</b>	<b>120,8</b>
Urganch sh	337,1	52,9	120,1
Xiva sh	14,5	2,3	125,3
Bog'ot	20,0	3,1	125,6
Gurlan	15,6	2,4	124,3
Qo'shko'pir	16,9	2,7	129,5
Urganch	34,1	5,3	129,1
Hazorasp	62,7	9,8	120,0
Tuproqqal'a	10,3	1,6	129,5
Xonqa	35,6	5,6	119,8
Xiva	28,5	4,5	113,9
Shovot	29,5	4,6	118,0
Yangiariq	20,8	3,3	115,3
Yangibozor	12,1	1,9	122,9




## Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari


**Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi** – amaldagi narxlarda mazkur sohada xizmat ko'rsatuvchi korxonalarning daromadlari (sotishdan tushgan tushum miqdori) yig'indisi sifatida aniqlanadi.

2023- yilning yanvar-mart oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi 154,7 mlrd. so'm darajasida qayd etildi va 2022- yilning yanvar-martiga nisbatan o'sish sur'ati 127,3 % ni tashkil etdi.

### Xizmatlar hajmi, mlrd. so'mda



### O'sish sur'ati



### Shahar va tumanlar kesimida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (2023-yil yanvar-mart)

	Hajm, mlrd. so'mda	Ulushi, % da	O'sish sur'ati,% da
<b>Xorazm viloyati</b>	154,7	100,0	127,3
Urganch sh	18,5	12,0	146,7
Xiva sh	8,0	5,2	130,5
Bog'ot	12,8	8,3	126,3
Gurlan	11,5	7,4	124,3
Qo'shko'pir	12,8	8,3	119,6
Urganch	16,3	10,5	130,5
Hazorasp	14,7	9,5	124,7
Tuproqqal'a	4,3	2,8	126,4
Xiva	15,0	9,7	123,6
Shovot	11,5	7,4	124,9
Xiva	13,1	8,5	124,5
Yangiariq	9,3	5,9	123,7
Yangibozor	6,9	4,5	123,0




### Ta'lim sohasidagi xizmatlar

**Mazkur seksiya** kunduzgi yoki sirtqi shaklda, shuningdek Internet tarmog'i va pochta yozishmalari orqali davlat tomonidan beriladigan yoki xususiy turli darajadagi ta'limni va turli kasblarga o'rgatishni o'z ichiga oladi. Bunga turli darajadagi muntazam maktab tizimi doirasida turli muassasalar tomonidan beriladigan ta'lim, shuningdek, kattalar uchun ta'lim (tayyorlash va qayta tayyorlash kurslari), ta'limni qo'llab-quvvatlash faoliyati va boshqalar kiradi.

**Ta'lim sohasidagi xizmatlar faoliyatini** amalga oshirishda ko'rsatilgan bozor xizmatlari, jumladan, masofaviy ta'lim xizmatlarini ko'rsatish qiymati (kontrakt o'qitish shakli) aks ettiriladi.

2023- yilning yanvar-mart oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi 121,1 mlrd. so'mga yetdi. 2022- yilga nisbatan o'sish sur'ati 113,8 % ni tashkil etgan.



### Shahar va tumanlar kesimida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi (2023-yil yanvar-mart)


Shahar va tumanlar	Xizmatlar hajmi, mlrd. so'mda	Ulushi, % da	O'sish sur'ati, % da
<b>Xorazm viloyati</b>	<b>121,1</b>	<b>100,0</b>	<b>113,8</b>
Urganch sh	89,2	73,7	124,0
Xiva sh	8,0	6,6	93,5
Bog'ot	2,9	2,4	89,3
Gurlan	1,3	1,1	88,4
Qo'shko'pir	2,0	1,6	89,1
Urganch	3,8	3,0	88,2
Hazorasp	3,1	2,5	115,2
Tuproqqal'a	1,4	1,2	90,1
Xonqa	3,0	2,5	93,3
Xiva	0,8	0,7	63,2
Shovot	1,8	1,5	112,0
Yangiariq	2,0	1,7	86,8
Yangibozor	1,8	1,5	90,4

## Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar

**Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi** bu – sog'liqni saqlash muassasalari tomonidan turli xil tibbiy yordam va sanitariya xizmatlari uchun ko'rsatiladigan bozor xizmatlarining qiymatidir.

2023- yilning yanvar-mart oylarida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi 6 384,2 mlrd. so'mga ya'ni, ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining 1,8 % iga yetdi. 2022- yilga nisbatan o'sish sur'ati 111,5 % ni tashkil etgan.

**Taqqoslash uchun:** 2022- yilda ushbu xizmatlar hajmi 2 220,0 mlrd. so'mni yoki ularning umumiy hajmining 1,5 % ini tashkil etgan.




Sog'liqni saqlash sohasidagi ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi Urganch shahrida – 56,1 %, Urganch tumanida – 22,0 %, Xonqa tumanida – 3,7 % ni tashkil etadi.

## Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar

**Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar** – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatilgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.

**Yashash bo'yicha xizmatlar hajmi** – qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.



### Shahar va tumanlar kesimida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (2022- yil yanvar-mart)

Shahar va tumanlar	Xizmatlar hajmi, mlrd. so'mda	Ulushi, % da	O'sish sur'ati, % da
<b>Xorazm viloyati</b>	<b>70,0</b>	<b>100,0</b>	<b>101,7</b>
Urganch sh	26,4	37,8	76,3
Xiva sh	6,6	9,3	101,0
Bog'ot	2,8	4,0	120,2
Gurlan	3,0	4,3	195,9
Oo'shko'pir	2,7	3,9	225,3
Urganch	7,5	10,7	74,3
Hazorasp	3,8	5,4	134,4
Tuproqqal'a	4,0	5,7	402,7
Xonqa	3,1	4,4	193,8
Xiva	2,4	3,4	172,0
Shovot	3,7	5,3	99,5
Yangiariq	2,0	2,9	193,7
Yangibozor	2,0	2,9	203,8

2022-yil yanvar-mart oyiga nisbatan 2023-yil yanvar-mart oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmi 15,0 mlrd. so'mga oshib, 70,0 mlrd. so'mga yetdi, o'sish sur'ati esa 101,7 % ni tashkil etdi.

### Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi

Yashash bo'yicha xizmatlar

81,0 %


19,0 %

Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar

### Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar

Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarni ko'rsatishda ko'chmas mulk bilan bog'liq operatsiyalar bo'yicha xizmatlar qiymati, korxonaning shaxsiy, xo'jalik yuritish yoki tezkor boshqaruvidagi, shuningdek, ijaraga olingan ko'chmas mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlari aks ettiriladi.

2023- yilning yanvar-mart oylarida ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar hajmi 65,2 mlrd. so'mni tashkil etdi. Xizmatlarning umumiy hajmida ularning ulushi 2,4 % ni tashkil etdi. 2022- yilga nisbatan o'sish sur'ati 103,7 % ni tashkil etgan.



### Shahar va tumanlar kesimida ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar hajmi mlrd. so'mda (2023- yil yanvar-mart)




Shahar va tumanlar o'rtasida ko'chmas mulk bilan bog'liq ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmida Urganch shahrining ulushi 35,1 % ni tashkil etdi. Hazorasp 8,3 % ni va Xiva shahrida 6,9 % ni tashkil etdi.

2022-yilga nisbatan ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarning o'sish sur'ati Urganch shahrida – 149,0 % ga, Xiva shahrida – 108,8 % darajasida qayd etildi.

### Ijara xizmatlari

Ijara xizmatlari bo'yicha ishlab chiqarish hajmi mashinalar va asbob-uskunalarni operatorlarsiz ijaraga berish, maishiy jihozlar va shaxsiy ehtiyoj buyumlarini ijaraga berishdan olingan daromad miqdori sifatida aniqlanadi.

2022-yil yanvar-martga nisbatan ijara xizmatlari hajmi 2,0 mlrd. so'mga oshib, 2023-yil yanvar-martda 43,8 mlrd. so'mni tashkil etdi. Xizmatlarning umumiy hajmida ularning ulushi 1,6 % ni tashkil etdi. 2022- yilga nisbatan o'sish sur'ati 96,7 % ni tashkil etgan.




### Shahar va tumanlar kesimida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi (2023-yil yanvar-mart)

Shahar va tumanlar	Xizmatlar hajmi, mlrd. so'mda	Ulushi, % da	O'sish sur'ati, % da
<b>Xorazm viloyati</b>	<b>43,8</b>	<b>100,0</b>	<b>96,7</b>
Urganch sh	16,2	37,0	128,9
Xiva sh	1,6	3,7	80,8
Bog'ot	2,5	5,7	81,7
Gurlan	1,9	4,3	80,3
Qo'shko'pir	3,0	6,8	84,6
Urganch	2,7	6,2	82,5
Hazorasp	2,1	4,8	90,2
Tuproqqal'a	1,8	4,1	85,3
Xonqa	2,2	5,0	82,9
Xiva	2,7	6,2	83,9
Shovot	2,5	5,7	92,3
Yangiariq	2,4	5,5	83,1
Yangibozor	2,2	5,0	83,8

**Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar hajmi** bu – kompyuterlar va periferik uskunalarni ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish, kommunikatsiya uskunalari (fakslar, radiostansiyalar)ni ta'mirlash, maishiy elektronika (radiopriyomniklar va televizorlar), uy va bog' uchun uskunalar (gazon o'ruvchi va havo (dam) beruvchi mashina), poyafzal va charm buyumlar, mebel va uy jihozlari, kiyim va aksessuarlar, sport anjomlari, musiqa asboblari va boshqa shaxsiy buyumlar va maishiy tovarlarni ta'mirlashdan tushgan tushum miqdoridir.

2023-yilning yanvar-mart oylarida kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar hajmi 112,9 mlrd. so'm qayd etilib, 2022- yilga nisbatan o'sish sur'ati 105,1 % ni tashkil etdi.



Urganch shahrida kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar hajmi 26,6 mlrd. so'mga vetdi.

2022-yilga nisbatan Urganch tumanida o'sish sur'ati 105,2 % ni, Gurlan tumanida bu ko'rsatkich 107,0 % ni tashkil etdi.

**Shahar va tumanlar kesimida xizmatlar hajmi va o'sish sur'ati (2023- yil yanvar-mart)**

Shahar va tumanlar	Xizmatlar hajmi, mlrd. so'mda	Ulushi, % da	O'sish sur'ati, % da
<b>Xorazm viloyati</b>	<b>112,9</b>	<b>100,0</b>	<b>105,1</b>
Urganch sh	26,6	23,6	117,2
Xiva sh	8,1	7,2	94,0
Bog'ot	12,6	11,2	81,7
Gurlan	8,0	7,1	107,0
Qo'shko'pir	7,7	6,8	108,4
Urganch	7,5	6,6	105,2
Hazorasp	5,1	4,5	107,1
Tuproqqal'a	2,2	1,9	106,8
Xonqa	6,8	6,0	97,1
Xiva	9,0	8,0*	106,0
Shovot	6,8	6,0	98,1
Yangiariq	6,4	5,7	92,9
Yangibozor	6,1	5,4	94,7




## Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar


**Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar hajmi** shartnomada nazarda tutilgan talablarga muvofiq loyihalar, izlanishlar, konstruktorlik va texnologik ishlar va ko'rsatilgan xizmatlar, shuningdek, qurilish ishlari ustidan nazorat va boshqa injenerlik xizmatlarining qiymatini o'z ichiga oladi.

2022- yil yanvar-martga nisbatan me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar hajmi 7,3 mlrd. so'mga oshib, 2023- yilning yanvar-mart oylarida 42,9 mlrd. so'mni tashkil etdi. Xizmatlarning umumiy hajmida ularning ulushi 1,6 % ni tashkil etdi. 2022- yil yanvar-martga nisbatan o'sish sur'ati 111,1 % ni tashkil etgan.

**Xizmatlar hajmi, mlrd. so'mda**



**O'sish sur'ati**



### Shahar va tumanlar kesimida me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar hajmi

Xorazm viloyati		mlrd. so'mda (2023- yil yanvar-mart)	
Xorazm viloyati	42,9	Tuproqqal'a	0,6
Urganch sh.	34,0	Xonqa	0,7
Xiva sh	0,4	Xiva	0,9
Bog'ot	0,4	Shovot	0,5
Gurlan	0,4	Yangiariq	0,4
Qo'shko'pir	0,7	Yangibozor	0,4
Urganch	2,9		
Hazorasp	0,6		

2023-yilning yanvar-mart oylarida me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlarning umumiy hajmida Urganch shahrining ulushi 34,0 % ni tashkil etdi

Xizmatlar sohasi texnologiyalari va tarmoq tuzilmasining murakkablashishi, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar sifati va xilma-xilligini yaxshilash, shuningdek, yuqori texnologiyali va intensiv xizmat ko'rsatish tarmoqlarining jadal rivojlanishi korxona, tashkilot va xo'jaliklarning samaradorligi va raqobatbardoshligini yanada oshirishga, aholi turmush darajasini oshirishga xizmat qiladi.